

Malika NOROVA,
Buxoro davlat universiteti
o'qituvchisi

SAYFIDDIN BOHARZIYNING MA'NAVİY MEROSI

Sayfiddin Abul Ma'oliy Sa'id ibn Ali Qoidiy Boharziy ulug' avliyo, buyuk tarbiyachi, o'z davrining etuk ustodi, voiz, tasavvufning mashhur shayxlaridan biri, Kubraviya tariqatining namoyondasi. Bu zoti sharif Eronning Boxarz (Naysobur bilan Hirot o'rtasidagi bir viloyat) shahrida 1190-yil (hijriy 586 yil sha'bon oyining 9-kuni) tug'ilib, 1261-yil (hijriy 659 yil zulqa'da oyining 20-kuni) Buxoroda vafot qilganlar. Qabrlari Buxoroning Fathobod mavzeida joylashgan.

Uning hayoti va karomatlari, saxovatu qahramonliklari haqida el orasida ko'plab afsona va rivoyatlar mavjud. Bu tabarruk farzandini xalqimiz e'zozlab asrlar davomida nomini xotirasida saqlab kelmoqda.

Tasavvufga oid manbalarda Sayfiddin Boharziyning ishlari, martaba va mo'jizalari haqida so'z boradi. Chunonchi, Imom Shamsiddin Zahabiyning kitoblarida ma'lumot berilishicha Ibn Fuvatiy "Mu'jamul alqob" kitoblarida Sayfiddin Boharziyni quyidagicha ta'riflagan: Boharziy muhaddis, hofiz, zohid, voiz, haybatli shayx, orif, taqvodor, fasohat sohibi bo'lib, so'zlari duru marjon kabi edi.

Ibn Fuvatiyning fikrlaridan ma'lum bo'ladiki, Shayxul Olam nomi bilan ma'lum va mashhur

Sayfiddin Boharziy muhaddis ya'ni hadisshunos olim. Imom Buxoriy hamda Imom Termiziylar kabi muhaddislardek Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) so'zlarini tahlil qilganlar. Qur'oni karimni yod bilganlar va xush ovoz qiroat qiladigan inson bo'lganlar. Zohid, ya'ni nafs tiyiq, taqvodor, din yo'lida riyozat chekuvchi va Ollohning zikriga xalal beruvchi barcha narsalarni tark etishga undaydigan kishi bo'lganlar. Kuchli voiz ya'ni, u kishining ma'ruzalarini tinglagan ko'pchilik aholi islom dinini qabul qilgan. Sayfiddin Boharziy salobatli, ko'rkam inson, tariqat yo'lining ma'rifat bosqichini egallagan shayx, taqvo, shariat yo'lida, Ollohning hukmlariga mukammal bo'y sunadigan inson, ilmlari juda mukammal va nutqlari juda ravon va chiroyli xuddi duru marjon kabi bo'lganlar.

Bundan tashqari, Shayxul Olam haqlarida Jomiyning "Nafohatul uns", Navoiyning "Nasoimul muhabbat", Yah'yo ibn Ahmad Boharziyning "Avrod al ahbob va fusos al adab", Nosiriddin To'raning "Tuhfat az zoirin" va boshqa manbalarda ma'lumotlar berilgan.

"Tuhfat az zoirin"da: "Hazrat Shayxul Olam olimi boamal, muhaddis Shayx Sayf haq vad din Abu al Maoniy Sa'id bin al Mutahar bin Sa'id bin al Boharziy", deb yozilgan. Bunday misralarda

Sayfiddin ma'nosi haqida dinnig qilichi mazmuni tushuniladi.

Manbalarda ta'kidlanishicha, Hazrat Shayx Sayfiddinning nasablari Hazrat Abu Bakr Siddiqqa borib taqaladi: Hazrat Shayx Sayfiddin Boharziy ibn Muhammadxoja ibn Sharif Atoxoxa ibn Muhyiddinxoja ibn Muvaffaqxoja ibn Ahmadxoja ibn Sa'idxoja ibn Muhammadxoja ibn Ishoqxoja ibn Abdulisломxoja ibn Muslimxoja ibn Nofe'xoja ibn Sa'dxoja ibn Tafil (Tufayl) xoja ibn Utbaxoja ibn Talhaxoja ibn Qosimxoja ibn Muhammadxoja ibn Hazrat Abu Bakr Siddiq raziyaallohu anhudirlar. Ya'ni Shayx ul-Olam xalifalar avlodlaridan bo'lganlar.

“Nasoimul muhabbat”da ta'kidlanishicha, Shayx Sayfiddin Boharziy Shayx Najmiddin Kubroning xulafosidindur (ya'ni shogirdlaridir). Zohiriy ulum tahsili va takmilidin so'ngra Hazrati Shayx mulozamatiga musharraf bo'ldi va tarbiyat topdi. Ko'rinib turibdiki, Shayx Sayfiddin zohiriy ilmlarni (ya'ni fiqh, hadis, tafsir va kalom ilmlar) ni Muayyid Tusi, Bog'dodda Ali ibn Muhammad Mavsilii, Abul Futuh Husriy, Ismoil ibn Sa'dulloh ibn Hamdiy, Mushrif Xolisiydan, Naysoburda Ibrohim ibn Solor Xorazmiydan o'rganganlar. Rivoyatlarda aytilishicha, u kishi Bog'dodga kelganlarida 11 yoshda bo'lganlar. So'ngra Shayx Najmiddin Kubro huzurlariga kelib, murid bo'lganlar. Sayfiddin Boharziy zohiriy ilmlarni Hirot va Nishopurda olganliklari manbalarda yozilgandir. Demak, Shayx Sayfiddin botiniy ilmni Hazrat Najmiddin Kubrodan o'rgandilar.

U kishi shariat ilmlarini o'rganish barobarida tariqatdan xabardor bo'lishga intilib yashaydilar va tasavvufga ishtiyoqi balandligidan qator shayx, darveshlar suhbatidan o'tadilar. Sayfiddin Boharziy komil inson sifatida kamol topishlarida ustozlarning o'rni beqiyosdir.

Shayxlar tarbiyasini olgach Boharziyning iste'dod-ilhom chashmalari bir-bir ko'z ocha boshladi. U kishi endi kitoblardagi fikrlarni takrorlamas, o'z mustaqil fikrlariga ega, islomning botiniy mohiyatini teran idrok etadigan allomaga aylangandilar. Shayx Najmiddin Kubro Sayfiddinda valiylik alomatlarini ko'rgach, 12181219-yillarda Buxoroga borishni va u yerda tariqatni joriy etishni

buyuradilar. Bu davr Buxoroning eng murakkab, o'lkamiz tarixining ayanchli paytlariga to'g'ri keladi. Chingizxon bosqinidan so'ng shahar ayovsiz talangan, jabr-zulum kuchaygan bir davr edi. Sayfiddin Boharziy mo'g'ullar zulmi davrida Buxoroda qariyb 40 yil yashaydi va yuqori darajali lavozimda ishlaydi. Bu insonning sharofati bilan Buxoro qayta tiklanadi. Shaharning ko'rkam minoralari yana karvonlar uchun mayoq bo'lib xizmat qila boshlaydi.

Sayfiddin Boharziy xalq manfaatini ko'zlab, mo'g'ullar bilan murosayu- madorada yashab, ularning islom dinini qabul qilishlari va bu dinning ulkan davlat diniga aylanishiga xizmat qiladilar. Bunga qarshi chiqqan mo'g'ul hukmdorlaridan biri Sayfiddin Boharziy tomon 170 ming nafar qo'shin tortib keladi.

Rivoyatlarga ko'ra, shayx dushmanga qarata bir olmani otganida qo'shin lashkarboshisining boshi xuddi olmadek yerga dumalab tushadi. Buning shohidi bo'lgan mo'g'ullar bu ulug' zotning karomatpeshaligiga tan berib, islomni qabul qilgan. Va mo'g'ul hukmdori Berkaxon Shayx hazratlari huzuriga tashrif buyurib, muridlikni qabul qiladi. Uning sharafiga xonaqoh, masjid va madrasa barpo etilishiga farmon beradi. Shunday qilib, Sayfiddin Boharziyning buyuk xizmatlari bilan bir tomchi ham qon to'kilmay, islom dini davlat fuqarolarining rasmiy diniga aylanishiga erishiladi. Bundan xabar topgan arab xalifasi Sayfiddin Boharziyga «Shayx-ul-olam» (Olam shayxi) unvonini, Buxoroga esa «Sharif» («Muqaddas shahar») maqomini berish to'g'risida yorliq yuboradi va Buxoro «sharif» unvoniga sazovor bo'lgan uchinchi shahar bo'lib qoladi.

Sayfiddin Boharziyning bizgacha «Sharhalasma al-husna», «Risolai ishq», «Voqeaixilvat», «Ruboiyot», «Vasiyatnoma», «Ro'znoma» kabi kitoblarining muallifi hisoblanadilar. «Vasiyatnoma» nomi bilan mashhur asarlari alloma tomonidan vasiyat tarzida o'zidan keyingi avlodga yozib qoldirgan asar sifatida o'rganiladi. Bu asarning nusxasini Xo'ja Ismat Buxoriy masjidining imom xatibi Salohiddin Gadoev lutf qilib berdilar. Biz bu manbani tarjima qilib quyida iqtibos berdik.

Asarda Sayfiddin Boharziy insonning nafsini tarbiyalash yo'li bilan uni ma'rifatga olib chiqish va komil inson darajasiga yetkazishni maqsad qilganlar va o'z tarbiya usuli jamlangan fikrlarini o'zlarining vasiyatlarida yozadilar hamda unda shunday fikrlarni bayon qiladilar: "Kamtarlik eng yaxshi bezak va baxillik eng yomon narsa deb ishonдим. Barcha yaxshiliklarni qamrab olgan sifatlar ichida eng yaxshisi xulq go'zalligi va barcha yomonliklarni qamrab olgan sifatlar ichida yomoni hasad ekan".

Shayx ul-olam fikrlaridan shu narsa ayon bo'ladiki, kamtar inson odamiylik va xushmuomalalik, bag'rikenglik, izzat-ikromni bilish, do'st va umuman o'zgalarning qadriga yetishlik, hurmat qila olishlik va ma'naviy poklik demakdir. Baxillik bo'lsa, birovning yutug'ini ko'rolmaslik, shaxsiyatparast, xudbin va ko'ngli qora kishilarga xos xususiyat bo'lib odamlar o'rtasidagi ijtimoiy-axloqiy munosabatlarga salbiy ta'sir qiladi. Jamiyatdagi insonparvarlik va adolatga putur etkazadi, jaholatni kuchaytiradi. Baxil kishilar birovlarni ko'rolmaganidan tashqari, ularning baxtsizligi va notinchligini istaydi. Sayfiddin Boharziy jamiyatda buzg'unchilik va notinchlikni keltirib chiqaruvchi asosiy narsa bu baxillik, deb ta'riflaydi. Baxil kishilar birovlarning muvaffaqiyatsizligidan mamnun bo'ladilar. Qur'oni karim va hadisi shariflarda ham baxillik hamma harom va yomon xulqning boshi sifatida qoralanadi va saxiy, himmatli, muruvvatli, fe'li keng inson bo'lishga da'vat etiladi.

Sayfiddin Boharziy barcha yomon xulqlarning yomoni bu- hasad ekanligini ta'kidlaydi. Chunki barcha yomonliklar zamirida hasad yotadi. Hasad – bu yomon illat hisoblanadi. Unga teskari arab tilida "g'ibto" so'zi mavjud. Buning ma'nosi, biror kishining muvaffaqiyatini ko'rib uning o'zida ham bo'lishini xohlash, havas qilish demakdir. Jumladan, Azhariy: "G'ibto hasadning bir turidir, biroq undan yengilroq degan". "Lisonul arab" lug'atida g'ibto va hasadning farqlarini quyidagicha tushuntirib o'tadi. "Hasad aslida "terisini shilmoq", g'ibto esa "biron narsani tekshirib bilmoq" ma'nolarini anglatadi". Agar

daraxt po'stlog'i shilib olinsa, u qurib qoladi. Bu hasaddir. Agar uning yaprog'i yulib olinadigan bo'lsa, ildizi qurimasa ham unga zarar etadi. Bu g'ibtodir. Ya'ni, inson bir-biriga nisbatan zarracha hasadga bormasligi kerak. Inson hasadga qarshi kurashishi va bunday hisning paydo bo'lmasligiga harakat qilishi kerak.

Allomaning fikrlaricha, barcha yaxshiliklarni qamrab olgan sifatlar ichida eng yaxshisi xulq go'zalligidir. Payg'ambarimizdan din nima? Deb so'rganlarida. Din – bu go'zal xulq deb javob berganlar. Payg'ambarimiz go'zal xulqqa quyidagilarni kiritadilar.

- aloqani uzgan qarindoshi bilan bog'lanish;
- biror narsani sendan qizg'angan kishiga sen baham ko'rishing;
- senga zulm qilgan kishini kechirishing;
- doimo Ollohdan qo'rqishing;
- go'zal xulq bilan muomala qilishing.

Bundan xulosa shuki, har bir inson jamiyat o'rtasida mehr – oqibatli, xushmuomala, adolatsizlikdan qochish, o'zaro munosabatlarda zulmkorlikka yo'l qo'ymaslik, har bir ishni hamjihatlikda amalga oshirish va hasaddan yiroq bo'lishlikka jidd-jahd bilan yondashish kerak hamda bunga doimo amal qilish lozim bo'ladi.

Alloma asarlari, tariqat yo'li, tasavvufiy qarashlari olimlar tomonidan o'rganilmoqda. Ko'chalar, maydonlarga u zotning tabarruk nomi qo'yildi. Ulug' donishmand ko'rsatgan jasorat, u ekan ilm-ma'rifatga muhabbat urug'i qalblarda yashamoqda.

XII asr oxiri XIII asrda yashagan Shayxul Olam nomi bilan mashhur Sayfiddin Abul Ma'oliy Sa'id ibn Ali Qoidiy Boharziy Kubraviya tariqatining namoyandasi 71 yillik umrlari davomida juda boy ma'naviy meros qoldirganlar. Sayfiddin Boharziyning boy ma'naviy merosi asosan arab tilida bo'lib o'zbek tilida tarjima qilinib, nashr etilmagan. Bizning qo'limizdagi manbalar ularning forsiy tilidagi nusxalaridir. Biz ularni tarjima qilib ilmiy jamoatchilik diqqatiga havola etdik. Ammo Sayfiddin Boharziyning ma'naviy merosini to'la tarjima va tahlil etish masalasi biz ilmiy tadqiqotchilar oldidagi asosiy vazifalardandir.